

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MA‘NAVIY TARBIYASIDA
OILAVIY KITOBXONLIKNING AHAMIYATI**

Musurmonova S.Sh

2-bosqich magistranti

Andijon davlat pedagogika instituti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:23.04.2026

Revised: 24.04.2026

Accepted:25.04.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*oilaviy kitobxonlik,
boshlang‘ich sinf
o‘quvchisi, ma‘naviy
tarbiya, mutolaa
madaniyati, intellektual
rivojlanish, ota-ona va
farzand hamkorligi.*

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda oilaviy kitobxonlik an‘analarining o‘rni va ahamiyati yoritildi. Oilada kitob mutolaasi muhitini yaratish bolalarning intellektual salohiyatini oshirish hamda ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishning asosiy omili sifatida tadqiq etildi. Shuningdek, maqolada ota-onalar va ta‘lim muassasasi hamkorligini mustahkamlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida kitob har doim ma‘naviyat, ma‘rifat va tarbiya manbai bo‘lib kelgan. Ayniqsa, bugungi jadal globallashuv, axborot texnologiyalari rivojlangan va “ommaviy madaniyat” xavfi kuchaygan bir davrda yosh avlodning ma‘naviy immunitetini shakllantirish masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Kitob o‘qigan insonning dunyoqarashi keng, ma‘naviyati boy bo‘ladi. Kitobxonlikni targ‘ib qilish bu kelajakni qurish demakdir”.

Boshlang‘ich sinf davri (7-11 yosh) bolaning ruhiy va intellektual rivojlanishida "oltin davr" hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolaning xarakteri, axloqiy me‘yorlari va atrof-

muhitga bo'lgan munosabati shakllanadi. Biroq, zamonaviy gadjetlar va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning bo'sh vaqtini egallab borayotgan bir paytda, ularni kitobga qaytarish faqatgina maktab ta'limining vazifasi bo'lib qolmasligi kerak.

Oilada kitobxonlik muhitini yaratish - bu shunchaki kitob o'qish emas, balki ota-ona va farzand o'rtasidagi ma'naviy ko'prikdir. Ma'naviy barkamollik insonning axloqiy pokligi, intellektual salohiyati va yuksak ideallariga tayanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu xislatlarni uyg'otish uchun oiladagi mutolaa madaniyati poydevor vazifasini o'taydi. Agar oilada kitobga nisbatan hurmat va qiziqish bo'lsa, bola buni tabiiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi.

Inson shaxsining ma'naviy qiyofasi, axloqiy me'yorlari va intellektual salohiyati, eng avvalo, oila deb atalmish muqaddas maskanda shakllanadi. Pedagogikada "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan hikmatli naql bejiz bot-bot takrorlanmaydi. Zero, bola atrof-muhitni, xususan, ota-onasining xatti-harakatlarini nusxalash orqali dunyoni taniydi. Agar oilada ota-ona bo'sh vaqtini mutolaa bag'ishlasa, kitobni eng aziz ne'mat deb bilsa, bu muhitda o'sayotgan farzandda kitobga nisbatan tabiiy ravishda mehr va ehtirom uyg'onadi.

Kitobxon oilada kamol topayotgan o'quvchining ichki dunyosi boy, tafakkur doirasi keng va mantiqiy fikrlashi teran bo'ladi. Bunday bolalar tengdoshlari orasida nutqining ravonligi, xushmuomalaligi va insonparvarligi bilan ajralib turadi. Mutolaa orqali ular har bir so'zning mas'uliyatini his qilishni, qilayotgan ishining oqibatini o'ylashni o'rganadilar. Bir so'z bilan aytganda, oilaviy mutolaa bolani komil inson va ziyoli shaxs sifatida shakllantirishning eng samarali mexanizmidir.

Oilada davrasida kitobxonlikning tizimli yo'lga qo'yilishi kutilayotgan natijani yanada kafolatlaydi. Bolalikning ilk davrlaridan boshlab o'zbek xalq ertaklarini tinglab ulg'ayish farzand qalbida mehnatsevarlik, halollik, samimiylig va mehmondo'stlik kabi milliy qadriyatlarimizni ildiz otishiga xizmat qiladi. Shuningdek, jahon va milliy adabiyotimiz durdonalari, xususan, Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy kabi buyuk mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishish bola tarbiyasida eng ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning o'gitlari o'sib kelayotgan yosh avlod uchun hayotiy yo'lchi yulduz vazifasini o'taydi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yoshlar ta'lim-tarbiyasi haqida gapirganda: "Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim" deb uqtirib o'tganlari

fikrimizning yaqqol isbotidir. Bu esa zamonaviy texnologiyalar bilan bir qatorda, kitobning o‘rnini hech narsa bosa olmasligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bolalar adabiyotining yirik vakili, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir o‘zining ko‘p yillik hayotiy va ijodiy tajribasidan kelib chiqib, kitobning tarbiyaviy kuchiga shunday baho bergan edi: “Umrim davomida inkor qila olmaydigan haqiqatim shuki, kichkintoylarning to‘g‘ri yo‘lni topib, dunyoqarashini shakllantirish, axloq-odobini yo‘lga solishda kitobdan-da muhimroq vosita yo‘q

ekan. Shuning uchun ham ota-onalarning birlamchi vazifasi farzandida kitobga nisbatan cheksiz mehr uyg‘otishdir”.

Muallifning ushbu fikrlari bugungi texnologiyalar asrida yanada teranroq mazmun kasb etmoqda. Gohida “fan-texnika taraqqiyoti tufayli adabiyotga, an’anaviy kitobxonlikka bo‘lgan e’tibor susaymoqda” qabilidagi gap-so‘zlarni eshitib qolamiz. Biroq shuni unutmash kerakki, insoniyat qalbida go‘zallikka, ma’naviy ozuqaga bo‘lgan ehtiyoj yashar ekan, badiiy so‘z va san’at asarlari o‘zining qadr-qimmatini hech qachon yo‘qotmaydi. Aksincha, axborot oqimi shiddatli tus olgan sari, saralangan va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan kitoblarga ixlos bilan qaraydigan, ularni zavq bilan mutolaa qiladigan yoshlar safi ortib borayotgani quvonarli holdir.

Bolalar kitobxonligining strategik maqsadi yosh avlodni go‘dakligidan boshlab insoniylik, halollik, adolatparvarlik va yuksak axloqiy fazilatlar ruhida kamol toptirishdir. Bugungi kunda yurtimizda bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi “Ijod” jamoat fondi tomonidan yosh ijodkorlarning ilk asarlarini ko‘p ming nusxada nashr etish va o‘quvchilarga yetkazish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu esa adabiyot maydoniga yangi, zamonaviy ruhdagi asarlarning kirib kelishiga xizmat qilmoqda. Biroq, sohadagi ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida mutolaa madaniyatini yuksaltirishda muayyan to‘siqlar ham sezilmoqda.

Bugungi kunda jahon adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga o‘girish va ularni ta’lim muassasalariga yetkazib berish jarayoni yaxlit bir zanjirga aylanmagan. Asosiy muammolardan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan adabiyotlarning saralanishi va mazmuniy sifatidir. Ko‘p hollarda nashr etilayotgan kitoblar bolaning yosh psixologiyasiga, uning bugungi kundagi qiziqishlariga to‘laqonli javob bermaydi. Shuningdek, ilmiy-ommabop adabiyotlar tanqisligi sezilmoqda. Bolaning dunyoqarashini o‘stirishga xizmat qiluvchi, fanning murakkab qonuniyatlarini sodda tilda tushuntirib beruvchi zamonaviy ensiklopediyalar va badiiy-ma’rifiy asarlarning ta’lim muassasalariga

yetib borishi hali ham past ko'rsatkichda qolmoqda. Bu esa maktab va oila o'rtasidagi "kitob yetkazib beruvchi tizim"ning mukammal emasligidan dalolat beradi.

Kitob nafaqat ma'naviy boylik, balki qulay va hamyonbop mahsulot bo'lishi lozim. Hozirgi kunda markaziy nashriyotlar tomonidan chop etilayotgan sifatli adabiyotlarning narxi, ayniqsa chekka tuman va qishloqlardagi aholi uchun yuqorilik qilmoqda. Nashr etilgan kitoblarni hududlarga o'z vaqtida va arzon narxlarda yetkazib berish logistikasi yetarli darajada rivojlanmagan. Ijtimoiy qatlamning barcha vakillari uchun kitob do'konlarining uzoqligi va kitob yetkazib berish (delivery) xizmatlarining, onlayn buyurtma platformalarining sustligi ota-onalarning kitob sotib olish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda. Kitob savdosi tizimidagi ortiqcha vositachilarning mavjudligi esa uning yakuniy narxi oshishiga sabab bo'lmoqda, bu esa bevosita oilaviy kitobxonlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Axborotlashgan jamiyatda yoshlarni gadjetlardan butunlay uzoqlashtirish imkonsiz. Shu bois, texnologiyalarni kitobxonlik dushmaniga emas, balki ittifoqchisiga aylantirish davr talabidir. Biroq aholiga xizmat ko'rsatuvchi yagona va boyitilgan elektron kitob platformalari, mobil ilovalar hamda professional darajadagi audio-kitoblar bazasi hali yetarli emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maxsus tayyorlangan, interaktiv va multimedia elementlari bilan boyitilgan elektron adabiyotlar tarmog'i sust rivojlangan. Bu bo'shliqni esa ko'pincha bolaning ma'naviyatiga zid bo'lgan, nazoratsiz xorijiy kontentlar egallab olmoqda. Elektron kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, milliy adabiyotimizni raqamli formatga o'tkazish va ulardan qulay foydalanish imkoniyatini yaratish bugungi kunning eng o'tkir masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish nafaqat nashriyotlar yoki maktablar, balki bevosita oilaning ham mas'uliyatidir. Kitobxonlik - bu shunchaki o'qish emas, balki millatning ma'naviy xavfsizligini ta'minlovchi eng muhim omildir.

Bolalar kitobxonligini shakllantirish jarayoni ta'lim muassasalari va oila zimmasiga ulkan ijtimoiy-pedagogik mas'uliyat yuklaydi. Bu jarayonda muvaffaqiyatga erishishning bosh omili ota-onaning shaxsiy ma'naviyati, yuksak badiiy didi va ma'rifat darajasidir. Zero, ma'rifatli ota-onagina farzandida kitobga nisbatan barqaror qiziqishni uyg'ota oladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, kitob bolaning ichki dunyosida faqat u mutolaaning mohiyatini anglab yetgandagina muhim o'rin egallaydi. Mutolaa shunchaki harf tanish emas, balki bolaning ma'naviy, aqliy va estetik o'sishiga xizmat qiluvchi intellektual jarayon bo'lmog'i lozim.

Farzandning kitob dunyosi bilan ilk uchrashuvi oilada o'qib berilgan birinchi hikoya yoki ertakdan boshlanadi. Ikkinchi bosqichda esa bola ota-onasining jonli mutolaasini tinglash orqali badiiy obrazlar jozibasini, so'z san'ati go'zalligini his qila boshlaydi. Kitob bilan ana shu tarzda boshlangan muloqot o'smirlik davriga kelib uning butun hayotiy faoliyatini mehnatini, o'yinlarini, ijodiy intilishlari va musiqa orqali oladigan ma'naviy zavqini ham qamrab oladi. Chunki bolalik olamini ijodiy mehnat, sehrli ertaklar, yuksak fantaziya va musiqasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Agar kitobxonlik ushbu barcha jarayonlarning markaziga qo'yilsa, bolaning hayoti chuqur mazmun-mohiyat kasb etadi, u hayotiy ziddiyatlarni to'g'ri anglaydigan, voqea-hodisalarga ongli munosabat bildira oladigan aql-zakovatli va ma'nan barkamol shaxs bo'lib voyaga yetadi.

Darhaqiqat, kitobxonlik insonni yuksak kamolot cho'qqilariga yetaklovchi yo'l bo'lsa, mutolaadan uzoqlashish johillik, ma'rifatsizlik va ma'naviy qashshoqlikka mahkumlikdir. Shu bois, maktab va oila oldida turgan eng dolzarb vazifa kitob mutolaasini inson hayotining ajralmas ehtiyojiga, ya'ni kundalik zaruriyatga aylantirishdan iborat. Agarda oilaviy muhitda kitobga bo'lgan e'tibor va samimiy muhabbat shakllanmasa, farzandning kitobga nisbatan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirish g'oyat mushkul kechadi.

Oila kitobxonligi bu shunchaki birgalikda kitob o'qish emas, balki oila a'zolarining intellektual salohiyatini yuksaltiruvchi, ma'naviy olamini boyituvchi hamda kitobni hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'taruvchi yaxlit tarbiya tizimidir. Ushbu tizim o'sib kelayotgan avlodning aqliy, ma'naviy-axloqiy va estetik rivojlanish qonuniyatlarini o'z ichiga oladi. U o'zbek oilalarining asriy kitobxonlik an'analari, milliy qadriyatlari va zamonaviy pedagogik tajribalar uyg'unligiga asoslanadi. Faqatgina ana shunday tizimli yondashuv orqaligina biz ma'naviy barkamol, davr talablariga javob bera oladigan ziyoli avlodni tarbiyalashga erishamiz.

Yuqorida amalga oshirilgan ilmiy-pedagogik tahlillar asosida, oilada kitobxonlik muhitini sog'lomlashtirish va bolaning mutolaaga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish maqsadida ota-onalarga bir qator muhim tavsiyalarni havola etamiz. Avvalo, tarbiya jarayonida shaxsiy namuna tamoyiliga tayanish lozim. Agar ota-onaning o'zi muntazam ravishda mutolaa bilan mashg'ul bo'lmasa, farzanddan kitobga nisbatan samimiy qiziqishni kutish qiyin, zero bola ko'p hollarda kattalarning nasihatlaridan ko'ra ularning xatti-harakatlaridan andoza oladi. Shu bilan birga, oilada o'ziga xos ma'naviy suhbatlar tashkil etish an'anasini yo'lga qo'yish, ya'ni o'qilgan asarlardagi eng qiziqarli epizodlar va tarbiyaviy ahamiyatga ega hikoyatlarni bolaga hayajon bilan so'zlab berish yoki ularni birgalikda o'qib, qahramonlar xarakterini tahlil qilish bolaning tanqidiy fikrlashini o'stiradi.

Kitob tanlash jarayonida o'quvchining yosh xususiyatlari, individual psixologik holati va matni qabul qilish darajasini hisobga olish o'ta muhimdir, chunki bolaning yoshiga mos bo'lmagan murakkab asarlar unda mutolaaga nisbatan zerikish yoki sovuqqonlik uyg'otishi mumkin. Buning uchun xonadonda kichik bo'lsa-da, "Bilimlar xazinasini" deb ataluvchi shaxsiy kutubxona tashkil etish va unda farzand uchun maxsus "Bolalar burchagi"ni ajratish tavsiya etiladi; bu bolada kitobga nisbatan egalik hissini va o'z mulkiga nisbatan mas'uliyatni tarbiyalaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda interaktiv mutolaa usulidan foydalanish, ya'ni she'r, sanoq va tez aytishlarni ohangdor hamda tovush chiqarib o'qib berish, rang-barang rasmiy kitoblar orqali ularning vizual xotirasini boyitish samarali natija beradi.

Shuningdek, bolani vaqti-vaqti bilan zamonaviy kutubxonalarga va kitob do'konlariga olib borib, unga mustaqil ravishda adabiyot tanlash imkoniyatini berish kitob bilan do'stlashishning muhim bosqichi hisoblanadi. Yakuniy nuqtada shuni unutmaslik kerakki, tanlangan barcha materiallar nafaqat ko'ngilochar va qiziqarli, balki pedagogik-psixologik talablarga hamda milliy tarbiya mezonlariga to'la javob berishi, bolaning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qilishi shart. Ushbu tavsiyalarga tizimli rioya qilish oilada kitobxonlik madaniyatining barqarorlashuviga va farzandning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga kafolat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoyev Sh.M. "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-son qarori. 2017-yil 13-sentabr.
- 2.Mirziyoyev Sh.M. "Ma'rifat va ma'naviy yuksalish yo'lida". – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
- 3.Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- 4.Abdulla Avloniy. "Turkiy Guliston yoxud axloq". – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
- 5.Hakim Nazir. "Bolalarga kitob bering". – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985.
- 6.Abdulla Qahhor. "Asarlar". 5-jild (Adabiy va publitsistik maqolalar). –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
- 7.Qosimov B. "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik". – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
- 8.Zunnunov A. "Pedagogika tarixi". – Toshkent: Sharq, 2004.

9.Samuel Marshak. "Vospitaniye slovom" (So‘z orqali tarbiya). – Moskva: Sovetskiy pisatel, 1964.

10.Scientific Progress. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy tarbiyasida oilaviy kitobxonlikning ahamiyati". Volume 2, Issue 8, 2021. ISSN: 2181-1601.

